



**TARIXIY TADQIQOTLAR**  
Ilmiy jurnali

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
Научный журнал

**HISTORICAL RESEARCHES**  
Scientific journal

TOSHKENT-2024

**TARIXIY TADQIQOTLAR**  
**ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**HISTORICAL RESEARCHES**

Bosh muharrir:  
Главный редактор:  
Chief Editor:  
**Suleymanov Rustam Xamidovich**  
tarix fanlari doktori, professor  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

Bosh muharrir o'rinbosori:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief editor:  
**Shakirov Ilyas Raximzyanovich**  
t.f.f.d., (PhD)  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**TAHRIR HAY'ATI**  
**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**  
**EDITORIAL BOARD**

**Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich**  
tarix fanlari doktori, professor, Akademik  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Muminov Alisher Gaffarovich**  
Siyosiy fanlari doktori, professor  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Zuyev Andrey Sergeyevich**  
tarix fanlari doktori, professor  
*Novosibirsk Davlat universiteti*

**Yunusova Xurshida Erkinovna**  
tarix fanlari doktori, professor  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Kobzeva Olga Petrovna**  
tarix fanlari doktori, professor  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Xoliqulov Axmad Baymaxamatovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Gabrielyan Sofya Ivanovna**  
tarix fanlari doktori, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Ubaydullayeva Barno Mashrabjonova**  
tarix fanlari doktori, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Siddikov Ravshan Berdimuratovich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Narbekov Abdikamil Vafayevich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*Navoiy Davlat pedagogika instituti*

**Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Bababekov Akbar Davurbayevich**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Zamonov Akbar Turginovich**  
tarix fanlari nomzodi, professor  
*Toshkent xalqaro Kimyo universiteti*

**Kandaxarov Anvarjon Xasanovich**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Alinazarova Dildora Valisherovna**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Tog'ayev Jasur Erkinovich**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**O'sarov Umid Abdumavlyanovich**  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

**Abdulayeva Nigora Sanjarovna**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*O'zbekiston Davlat Jaxon tillari universiteti*

**Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*O'zbekiston Milliy universiteti*

Контакт редакции журнала  
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,  
Исторический факультет Национального  
Университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека  
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:  
[I.Shakirov91@mail.ru](mailto:I.Shakirov91@mail.ru)  
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal  
Tashkent city, street of Mirzo Golib  
Faculty of history of the National university of  
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:  
[I.Shakirov91@mail.ru](mailto:I.Shakirov91@mail.ru)  
Phone: +998900382203

# MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

|                                                                                                                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Abdullayev Utkir Ismailovich., Matnazarova Mohira O'ktamovna</b><br>KO'CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN'ATNING TARAQQIY ETISH<br>BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR                                             | 4   |
| <b>2. Bababekov Akbar Davurbayevich</b><br>O'ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG'LIQ EKOLOGIK TARBIYA                                                                                                                        | 12  |
| <b>3. Bahranov Sherzod Tashtursunovich., Sirliyev Erkin Nazarovich</b><br>УСТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ<br>ИМПЕРИИ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ ЧЕРЕЗ<br>ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ | 26  |
| <b>4. Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</b><br>KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI                                                                                                                                               | 44  |
| <b>5. Matyakubova Muborak Madrimovna., Atamuratova Dilafruz Rashidovna</b><br>O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING<br>TARIXIY TENDENSIYALARI                                                                     | 60  |
| <b>6. Narbekov Abdikamil Vafaevich</b><br>YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA<br>TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI                                                                                                 | 70  |
| <b>7. Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich</b><br>TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA                                                                                                                          | 83  |
| <b>8. Ochildiyev Fayzullo Babakulovich</b><br>XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA<br>BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY<br>MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI                                                                  | 100 |
| <b>9. Smesova Katerina Aleksandrovna</b><br>ИСТОРИЯ КНИГОПЕЧАТАНИЯ И КНИЖНОГО ДЕЛА<br>В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ                                                                                                                  | 112 |
| <b>10. Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich</b><br>TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA                                                                                                                                         | 126 |
| <b>11. Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna</b><br>ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ - КАК МЕЖДУНАРОДНЫЙ<br>ТУРИСТИЧЕСКИЙ БРЕНД                                                                                                                     | 143 |
| <b>12. Yusupov Axmedjon Shonazarovich</b><br>OROLBO'YI KO'CHMANCHI SAK-MASSAGET<br>QABILALARINING DINIY QARASHLARI VA E'TIQODLARI                                                                                           | 155 |

**Narbekov A. V.**

t.f.n., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

[Narbekovabdikamil@gmail.com](mailto:Narbekovabdikamil@gmail.com)

## **YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI**

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Din va vatanparvarlikning dialektik o'zaro aloqadorligi, dinning tarixiy shakllari, ta'limoti va ularning fuqarolarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy o'rganilgan. Hozirgi davrda diniy globalizm, fundamentalizmning vatanparvarlikka salbiy ta'siri va ularni bartaraf etish zarurati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, vatan, din, e'tiqod, madaniyat, ma'naviyat, burch, muhabbat, milliy ong, diniy tashkilot, globallik, mutaassiblik, liberalizm, mentalitet, fundamentalizm, radikalizm.

---

**Нарбеков А. В.**

к.и.н., доцент

Национальный университет Узбекистана

[Narbekovabdikamil@gmail.com](mailto:Narbekovabdikamil@gmail.com)

## **МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИИ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье проанализировано диалектическая взаимосвязь религии и патриотизма, влияние религии и их догм в формировании чувства любви к родине. Научно обоснованы негативное влияние глобализма и фундаментализма на патриотические чувства граждан и пути их устранения.

**Ключевые слова:** Патриотизм, родина, религия, вера, культура, духовность, долг, любовь, национальное сознание, религиозная организация, глобализм, фанатизм, либерализм, менталитет, фундаментализм, радикализм.

---

**Narbekov A. V.**

PhD, Associate Professor

National University of Uzbekistan

[Narbekovabdikamil@gmail.com](mailto:Narbekovabdikamil@gmail.com)

## **THE POSITION AND IMPORTANCE OF RELIGION IN THE PATRIOTIC UPBRINGING OF YOUTH**

### **ABSTRACT**

The article analyzes the dialectical relationship between religion and patriotism, the influence of religion and their dogmas in the formation of a feeling of love for the homeland. The negative impact of globalism and fundamentalism on the patriotic feelings of citizens and ways to eliminate them are scientifically substantiated.

**Key words:** Patriotism, homeland, religion, faith, culture, spirituality, duty, love, national consciousness, religious organization, globalism, fanaticism, liberalism, mentality, fundamentalism, radicalism.

---

### **KIRISH**

Vatanparvarlik keng ma'noda kishining oilasiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, xalqiga va vataniga bo'lgan his-tuyg'usi, ya'ni muhabbatidir. Shuningdek bu tushunchani, qalbisizdagi nozik tuyg'ular mehr, muhabbat, sadoqat, iymon va e'tiqod bilan ham qiyoslaymiz. Muhabbat ularning asosini tashkil etadi. Muhabbat inson qalbidagi yuksak fazilat hamda jamiyatda o'zini namoyon etuvchi qadriyatdir. U kishi qalbidagi nozik tug'usi bilan birga halqimizning yutuqlari, betakror madaniyati bilan faxrlanishga, buyukligini tan oishga, unga g'amho'rlik qo'rsatish hamda Vatan va xalq manfaatlarini himoya qilishga da'vat etuvchi qadriyatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi"[1].

Dinning asosini g'ayri tabiiy kuchga e'tiqod tashkil etadi. E'tiqod asosida insonning hayotga munosabati, yashashdan maqsadi, intilishlari, qadriyatlari, burch va mas'uliyati yuzaga keladi. Odamning cheksiz ehtiyojlari, istak va mayllari jilovlanadi, qadriyatlarga ilohiy tus beriladi. E'tiqodli odam uchun muqaddas qadriyatlarning eng ulug'i bu Vatandir.

Odamning qadriyatlarga hurmati milliy ongni yuksalishiga xizmat qiladi. Milliy ong "milliy kayfiyat"ning asosida yuzaga keladi. Milliy kayfiyat diniy e'tiqodga tayanadi[2]. Diniy e'tiqod bu nafaqat marosim, balki turmush tarzi, hokimiyat, bayramlar, maishiy munosabatlar, kiyim-kechak va boshqalarga aloqador ilohiy qadriyatdir.

Din odamlarni e'tiqodiga ko'ra jamiyat va davlat miqyosida birlashtiruvchi dunyoqarashdir. Ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida milliy madaniyat, ma'naviy qadriyatlar, uning o'ziga xosligiga ta'sir ko'rsatadi va saqlanib qolishiga yordam beradi.

---

### **TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI**

Inson qalbida Vatanparvarlik tuyg'usining tomir otishida musulmonlarning e'tiqodda tengligi aqidasi katta ta'sir ko'rsatadi. E'tiqodda tenglik aqidasi etnik birlikning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va hududiy jihatdan jipslashtiradi. Din vositasida "Turon", "Turkiston" g'oyalari ommalashdi, ularga ilohiy tus berildi, turkiy xalqlar jipslashtirildi.

Diniy tashkilotga mansublik, dindorlar jamoasining kuchi va birligiga bo'lgan ishonchi, sajdagohi joylashgan zaminga hurmat kabi tuyg'ular vatanparvarlikni odamlar qalbida shakllanishiga barakali ta'sir ko'rsatadi. Dindorlar jamoasining birligi va kuchiga ishonchi xalqining kuchiga ishonchi yuzaga keladi. Muqaddas qadamjolari joylashgan zaminga hurmat uni yovuz kuchlardan asrashga, muqaddas tuproqni qadrlashga o'rgatadi.

Dindorning e'tiqodda qat'iyatliliigi, uning talablariga og'ishmay amal qilish orqali vatanning muqaddasligi va uning oldidagi burchni anglash, ularni bajarishga jur'at va harakatga rag'bat yuzaga keladi. Odamning qalbida vatanparvarlik tuyg'usi mustahkam ildiz otadi. Vatanparvarlik g'oyasi ongimizda dastlab diniy



ma'no va mazmunga ega bo'lgan[3]. Bu tuyg'u qalblarda mustahkam ildiz otishi uchun ilohiy tus berilgan. Vatanparvarlik g'oyasi odamlar qalbida ma'no va mazmunga ega bo'lgan, ularning hayotiy maqsadi, e'tiqod ramziga aylangan. Ularga ilohiy tus berilib, milliy maddohlik, shaxsiy manfaatda uchun fodalanishlari imkoniyatlarini cheklagan.

Vatanparvarlik mazmunan inson ruhiyatini ifodalovchi qadriyat sifatida dinga yaqin turadi. Ularni asosida insonparvarlik yotadi. Insonparvarlik shaxs ma'naviyatini yuksaklirtiradi, makon va zamonda cheklanganligi, o'tkinchiligi bartaraf etib, abadiylikka daxldorlik, millat va shaxs xotirasida saqlanib qolishini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, vatanparvarlik dunyoqarash bo'lib, din orqali jamiyat va inson ongida muhrlanadi. Odamlarning qadriyati va e'tiqodiga aylanadi. Faylasuf Kant din inson tomonidan axloq qoidalarida qayd etilgan burchlarni Xudoning amri sifatida tan olishninishidir, – deb ta'kidlagan. Dyurkgeym uning g'oyasini rivojlantirib dinning ijtimoiy vazifalarini yuqori baxoladi: “Din - bu asosiy ijtimoiy munosabatlarni muqaddaslashtirish orqali odamlarning birdamligi va jamiyat yaxlitligini ta'minlaydigan mafkuraviy mexanizmdir”[4].

Din vositasida ongimizda odamlarning birligi to'g'risida g'oya vujudga keladi va ularning yanada jipslashuvi jarayoni kuchayadi. Bu jarayonning yuzga kelishi uchun din va axloqiy qadriyatlarning, shu jumladan, vatanparvarlik ham bevosita hamkorligi talab etiladi.

Dinning odamlarni birlashtiruvchilik vazifasi, ularning fe'l-atvori va xatti-harakatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odam o'zidagi ikkilanish va shubhalaridan halos bo'lib, hayotidan maqsadini aniq tasavvur etadi. Dinning odamlarga ta'sir ko'rsatish kuchi qudratini Rossiyalik mutafakkir N. Berdyayev quyidagicha ta'riflaydi, “Xudo na tabiat, na jamiyat va na davlat kuchga o'xshaydi”[5]. Insondagi o'zini himoya qilish, yetakchilikka intilish, nasl qoldirish kabi reflekslar vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishida muaychn ishtiroki mavjud, lekin ularning mohiyatini belgilovchi omil bo'la olmaydi. Zero, odamdagi refflekslar, tarbiya

vositasida shakllangan ongli faoliyatiga bo'ysundiriladi. Vatanparvarlik insonning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi, "jamiyatning ma'naviy darajasini" ko'rsatadi.

Dinning tarixiy shakllari va vatanparvarlik. Diniy dunyoqarashga tarixiy taraqqiyot ta'sir ko'rsatadi va uning mazmunida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Yuqorida biz Vatanparvarlikni ilohiy his-tuyg'u deb atadik. Zero, uning odamlar ongida g'oyaviy ma'no va mazmun kasb etishida din ham beosita ishtirok etadi.

Insoniyat tarixining ilk bosqichi bo'lgan ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar tabiatning bejilov kuchlariga qarshi kurashib omon qolishi uchun refleks darajasida birlashish zarurligini anglagan, keyinchalik qon-qardoshlik belgilariga ko'ra kichik guruhlar (ota-ona, bolalar va boshqa yaqin kishilar) tashkil etgan. Yashash uchun kurash taraqqiyotning birdan bir vositasi bo'lgan[6].

Jamoasi istiqomat qilayotgan makonni yashash zarur hudud, moddiy ta'minot beruvchi maskan deb bilib, uni begonalardan himoya qilgan. Bu kurashda ular jaomat bo'lib yashash uchun zarur qadriyatlar: jamoatchilik, ya'ni ularning jamoaga birlashuvi, unda bevosita ishtirok etish, voqea va hodisalarga "dahldorlik", "mas'uliyatni his etish", "fidoiylik", "yaqin kishilariga g'amxo'rlik", "begonalarga qarshi kurashda qat'iyatlilik", "burchni anglash" kabi insoniy tuyg'ular shakllangan. Bu tuyg'ular o'z navbatida vatanparvalikka xos qarashlar: istiqomat qilayotgan joyning tabiatini saqlab qolish, oilaviy an'analarga sodiqlik, o'zini jamoa bilan birligini his etish, tili, an'analarini hurmat qilishi kabi qadriyatlar shakllandi.

Kichik oilalar tarixiy taraqqiyot jarayonida urug'larga birlashdi. Urug' jamoalari qon-qardoshlik belgisiga ko'ra birlashgan va hamkorlikda ho'jalik yurituvchi guruhlardan iborat edi. Urg'larning birlashuvi natijasida qabilalar vujudga keldi. Odamlarning faoliyat sohalari kengayib, ho'jalik yuritishning an'anaviy termachilik va ovchilik kabi an'anaviy turlari bilan bir qatorda, ishlab chiqarish munosabatlari: chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlandi. Tabiiy ashyolarni qayta ishlash usullari takomillashtirildi. Mehnat va jangovar qurollarning turlari ko'payib, sifati yaxshilandi.



Urug'chilik davridan odamlarning dunyoni tarixan anglashi "ajdodlar ruhiga sig'inish" ko'rinishini oldi. E.B. Taylor bu e'tiqod turini "ma'naviy mavjudotlar to'g'risidagi ta'limot" deb atadi[7]. Ibtidoiy odamlar vafot etgan kishi hayotdan butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, ular tiriklar bilan yonma-yon mavjud deb hisoblagan. O'tganlar tiriklarning urf-odat va an'analarga nechog'liq sodiqligi va ularga qanday amal qilishini kuzatgan. Odamlar o'tmish bilan bevosta aloqadorlik mavjudligiga ishongan. Ajdodlar ruhiga sig'inish kishilar ongida "mas'uliyat", "vijdon", "tarixiy xotira", "vatanparvarlik" kabi tuyg'ularni yanada mustahkamladi.

Ruhlarga, tabiat hodisalari (suv, olov, oy, quyosh)ga va mavjudotlar (ot, bug'u, mushuk kabilar)ga sig'inish keng yoyildi. Ibtidoiy din turlari e'tiqodi vositasida (totemizim, animizm, fetishizm) odamlarni jipslashtirdi. Odamlar totemi, fetishi yoki ajdodlar ruhiga sig'inishlari orqali birlashdilar va yagona jamoa tashkil topdi. Totem orqali jamoa a'zolari bir-birlari bilan qon-qarindosh bo'lib, o'zaro g'amho'rlik ko'rsatish burchi yuzaga keldi.

Odamlarning totemi orqali bir-birlari bilan qon-qarindosh ekanligi to'g'risidagi tasavvuri, ularning qon-qarindoshlik to'g'risidagi qarashlaridan oldin vujudga keldi[8]. Totem atrofida qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan jamoa a'zolari begonalardan farq qilishi to'g'risidagi tasavvurni yuzaga keltirdi, ya'ni o'z menini, "o'ziniki" va "begona"lar o'rtasida chegara borligini angladi[9]. Shunday qilib insoniyat taraqqiyot yo'lini belgilovchi, ijtimoiy o'zligini anglashga yordam beruvchi qadriyatlar vatanparvarlikning ham muhim elementlari vazifasini bajaragan.

Animizm ibtidoiy e'tiqodi vatanparvarlik tuyg'usini ongimizda vujudga kelishi va rivojlanishidagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Animizm yoki ruhlar dunyosi haqidagi g'ayri tabiiy qarashlarning rivojlanishi tarixi bir necha bosqichidan o'tdi. Birinchi bosqichda, hayotning manbai ruh bo'lib, u ilohiy ravishda paydo bo'lgan[10]. Ruh boqiy bo'lib odam vafot etganidan keyin tanani tark etadi. Moddiy qobig'ini tark etgan ruh narigi dunyoda faoliyatini davom ettirishi uchun, tana egasi hayoti davomida to'plagan moddiy boyliklarining bir qismi bilan

qo‘shib ko‘mish marosimi vujudga keldi; Ikkinchi bosqichda, ruhning narigi dunyodagi mavqei odam(qobiq)ning tirikligida fazilatli yashashganligi hisobga olinishi to‘g‘risidagi aqida yuzaga keldi. Aqidaga binoan, narigi dunyoning rohat-farog‘ati hammaga ham nasib qilavermaydi, agar odam umrini xalqiga xizmat qilishga bahshida etsa, dushmanlarga qarshi matonat bilan kurashsa, urf-odat va an‘analar hamda din talablarini muqaddas deb bilib, insoniylik burchini sidqidildan bajarsa vafot etganidan keyin narigi dunyoda ruhi yuqorida qayd etilgan imtiyozlar beriladi. Xalqiga xiyonat qilgan, sotqin, o‘zini o‘ylab yashagan, boshqalarga befarq va zaif odamlarning ruhlari abadiy qiynoqqa duchor qilingan yoki zulmatga g‘arq bo‘lib ketgan. Demak dinda ham vatanparvarlar narigi dunyoda rohat-farog‘atda bo‘lishi belgilangan. Ular ilohning nazariga tushgan va abadiy rohat-farog‘atga erishgan[11].

Ishlab chiqarish, xususiy mulk, ijtimoiy guruhlar va davlatning vujudga kelishi vatanparvarlik g‘oyasi rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi. Xususiy mulk, ijtimoiy guruhlar va davlat uning mohiyatini tashkil etgan. Amaldorlar va mulkdorlardan iborat hukmron tabaqalar mehnat unumdorligining pastligi sababli, ishlab chiqaruvchilarning iste‘moli uchun mo‘ljallangan mahsulotini katta qismini zo‘rlilik bilan tortib olgan. Oddiy mehnatkash aholini shafqatsizlarcha ezish, zo‘ravonlik va bosqinchilik hukmron tabaqalar uchun boylik orttirishning eng ommalashgan usuli sifatida saqlanib qoldi. Shuning uchun davlatlar tashqi siyosatida urushlar to‘xtovsiz davom etgan. Urushlardan manfaatdor hukmron ijtimoiy guruhlar jamiyatning asosiy qismini tashkil etgan o‘rta hol va kambag‘al tabaqalar vakillari ongiga vatan va davlat manfaatlariga xizmat qilish sharaflilik ekanligi g‘oyasini singdirdirildi. Albatta barcha urushlar bosqinchilik, o‘zgalar mulkini talash maqsadida olib borilgan emas. Davlat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilib bosqinchilarga qarshi kurash, ya‘ni adolatli urushlarni ham e‘tirof etish joiz.

Jahon dinlari, shu jumladan, islom dinining vujudga kelishi va yoyilishi xalqlarning madaniyati, tili, urf-odat va an‘analarini o‘ziga singdirdi. Ayni vaqtda milliy madaniyatlarga umuminsoniy madaniyat yutuqlarini olib kirdi va ularni yanada boyishiga xizmat qildi[12].

Islom dinida vatanparvarlik g'oyasi aqidaviy qadriyat hisoblanadi. «Xudbil vatani minal iymon», (Vatanni sevmoq iymondandir), – degan hikmatli so'zlar musulmonlar ongiga singdirildi. Vatanni himoya qilish Aloh xuzurida amallarning eng sevimlisi sifatida qabul qilindi[13].

Diniy tashkilotlar lokal makonda faoliyat olib boradi, milliy madaniyatga ta'sir ko'rsatadi va uni boyishiga xizmat qiladi. Lekin bu jarayon dialketik mazmunga ega, zero, dinlar o'rtasidagi raqobat va mutaassiblik g'oyalarini ommaga olib kirishni maqsad qilib olgan mazhablar etnik birlikka rahna soladi, unda bo'linishlarni yuzaga keltiradi, hatto sivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuvlarga sabachi bo'lishi mumkin.

Diniy konfessiyalar o'rtasidagi nosog'lom raqobat, mutaassib dindorlarning etnik jarayonlarga salbiy ta'siri muammosini e'tiborga olib mumtoz adib L.N.Tolstoy vatanparvarlikning millat va davlat miqyosida cheklanganligi, nasroniylik va vatanparvarlikning mazmunan bir biriga zid kelishni ta'kidlagan. Adib Vatanparvarlik to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon etib, nasroniylik ta'sirida dindorlar “o'zini vatan farzandi, hukumatining quli deb bilishi, aqli va vijdoniga zid ish qilishi”ni ta'kidlagan[14]. Adibning din va vatanparvarlik munosabatlarda ziddiyatli xolatlar va noaniqliklar mavjudligi to'g'risidagi fikr va mulohazalari, uning jamiyat va inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini inkor etmaydi.

Vatanparvarlik xalqning birligi va o'ziga xosligini anglatuvchi, qadriyat. Xalqni, uning madaniyatini, dini va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirish hamda hududining daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy kuchdir. Vatanparvarlik tuyg'usini anglamagan kishi ijtimoiy mavjudot sifatida o'zga milliat va davlatlarni kuchaytiruvchi manba vazifasini o'tab beradi, ya'ni uning avlodi o'zga millat fuqarolari saflarini to'ldiradi, genofondini boyituvchi manba bo'lib qoladi. Masalan Yevropa mamlakatlaridagi aholisi tabiiy o'sishdan to'xtagan davlatlar migrantlar hisobiga uning qisqarib ketishini oldini olayotganligi hech kimga sir emas.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va din. O'zbekistonda yoshlar jamiyatning eng ko'p sonli qatlamidir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ular

O'zbekiston aholisining 60 % ni tashkil etadi[15]. Shu bois, aholining ijtimoiy faol qatlami sifatida yoshlarni jamiyatga integratsiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi davlat va jamoat birlashmalari: oila instituti, maorif tizimi, madaniyat va san'at muassasalari va boshqalardan iborat. Ularning yoshlar bilan olib borayotgan tashkiliy-tarbiyaviy ishlari hozirgi zamon talablariga javob bermasligi masalasi muttasil ravishda mamlakatimiz matbuotida tanqid qilinib kelinadi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: mazkur masala bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalarning faoliyatlari o'zaro muvofiqlashtirilmaganligi, jamiyat va davlat faoliyatiga ma'no va mazmun beruvchi, ularni yo'naltirib turuvchi milliy g'oyaning ishlab chiqilmaganligi va boshqalardan iborat.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash murakkab vazifa bo'lib, bu masala bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalar tizimli yondoshuvi talab etiladi. Masalan, shaxs va jamiyat darajalarida amal qiladigan qadriyatlar, talab va ta'qiqlar ijtimoiy guruhlarda turlicha namayon bo'lishi sababli, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy o'rganish talab etiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda davlat tashkilotlari va muassasalari, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda diniy tashkilotlar ham faol ishtirok etadi. Davlat tashkilotlari va muassasalari ishtirokida yoshlarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'usi, siyosiy tizimga sodiqlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga ustuvorlik berilsa, nodavlat va notijorat tashkilotlarining ishtirokida ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish, ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish kabi vazifalarni hal etishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Din shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga ta'siri kuchli ekanligi bizga ma'lum. Bu ta'sir ruxiy hotirjamlik, dunyoning yaxlitligi, hayotining ma'nosi haqida aniq tasavvurni shakllantirishi bilan belgilanadi[16]. Din shuningdek yoshlarda xalqni anglash, yutuqlaridan g'ururlanish, fuqarolik burchiga

mas'uliyatli yondashish, mehnatni sevish hamda halol yashash ruhida tarbiyalashda ham ishtirok etadi.

Hozirgi zamonda xalqaro miqyosda informatsiya hurujining kuchayishi, G'arb madaniyatining ommaviy iste'molga mo'ljallangan mahsulotlarini rivojlantirayotgan va rivojlanishda ortda qolgan davlatlar va xalqlarga singdirish harakti, yaltiroq ko'rinishda, ya'ni liberal qadriyatlarni targ'ib qilish shaklid amalga oshiriladi. Ularda yashiringan illatlar: kuchga sig'inish, shaxsiyatparastlik, individualizm, iste'molchilik, umum qabul qilingan hulq-atvor qoidalariga amal qilmaslik kabilar yoshlar tarbiyasiga, shu jumladan vatanparvarlik tarbiyasiga ziyon yetkazadi. Liberalizmga xos ayrim g'oyalar, kishini e'tiqod, milliy ruh va ma'naviy qadriyatlardan mosuvo qiladi.

Liberalizm mafkurasi fuqaroning erkinligini mutlaqlashtiradi. Shaxsiy erkinlik faqat boshqalarning manfaati, tinchligi va havfsizligiga dahl qilsa cheklanishi mumkinligi targ'ib qilib, har qanday majburlovga qarshi chiqadi[17]. Axloq meyorlari va tabiat qonunlari shaxsning erkinligini cheklaydi yoki majburlovga yo'l qo'yadi. Erkinlikning mutlaqlashtirilishi davlatning barqarorligi va xavfsizligiga tahdidlarni yuzaga keltiradi. Kishi vatan taqdiri bilan o'z taqdirining bog'liqligini anglasa, jamiyat va davlat manfaatlarini shaxsiy manfaati bilan uyg'un ko'rsa, moddiy turmush darajasi o'ziga bog'liq ekanligini anglasa, faqat mehnat bilan faravon hayot qurish zarurligini bilsa, e'tiqodi turlicha bo'lgan fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlik uchun kurashsa davlatda barqarorlik yuzaga kelib, taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

O'zbek xalqi mentalitetiga bag'rikenglik (tolerantlik), mamlakatimizda yashayotgan millat va elatlarning madaniyati va e'tiqodiga hurmat xosdir. Zero, yurtimizda qadimdan turli elatlar istiqomat qilib, turli dinlarga e'tiqod qilgan. Ular tinch-totuv yashagan va tarixiy taraqqiyotning suronli davrlarida, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqirozlar larzaga solsa ham aholi orasida diniy va milliy adovat yuzaga kelmagan. Ko'p millatli xalqimiz hamjihatlikda, taqdir sinovlarini matonat bilan yengib o'tgan.

O'zbek xalqining yurt obodligi uchun fidokorona mehnati, milliy davlatchiligimizni saqlab qolishda ko'rsatgan fidoiyligi, jasorati, bag'rikengligi boshqa elatlarning e'tiqodi, madaniyati, urf-odat va an'analariga hurmatini yanada mustahkamladi.

Hozirgi davrda diniy e'tiqod erkinligi niqobida uning mohiyati, mazmuni va aqidalarini buzib talqin etish, aqidaviy maddohlik, zamon talablariga mos yashashga to'sqinlik yoki boshqalarga betoqatlikni shior qilib olib, "sof" e'tiqod uchun kurash tarafdorlari jahonning turli mintaqalarda hunrezliklar sodir etib, muqaddas dinimizning bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik va insonparvarlik mohiyatiga xalqlarning ishonchini yo'qqa chiqarmoqda. Radikal g'oyalarni e'tiqod ramzi sifatida qabul qilgan vayronkor kuchlar odamlar ongini zaharlab, ularga ta'sirini kengaytirishga urinmoqda.

### **XULOSA**

Fundamentalizm, ekstremizm va terrorizmni din yoki muayyan e'tiqod bilan bog'lab talqin qilish xato. Zero, har qanday din tarafdorlarini e'tiqodi boshqalarga nisbatan toqatli bo'lishga da'vat etadi. Taqvodor kishi ham odamlarga o'z qarashlarini singdirishga harakat qilmaydi, boshqalar bilan hamjihatlikda yashashga harakat qiladi. Dinda buyurilgan narsalar (farzlar) vatanparvarlikka daxldor bo'lishi bilan birga, umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Diniy tarbiya asosini kishining oilasi, mahallasi, hududi va vataniga nisbatan bo'lgan mas'uliyatini aglash tashkil etadi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, inson oilasi va vatanining madadiga tayanib, ichki imkoniyatlari, iqtidori va ezgu orzu-xavaslarini amalga oshira oladi. Din kishining ma'naviyatini yuksaltiradi, e'tiqodini mustahkamlaydi, vijdonini uyg'otadi. Vatan va din kishini munosib yashashga o'rgatadi va rag'batlantiradi.

### **IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES**

1. Мирзиёев Ш.М. Қуролли кучлар — ватанимиз ва халқимизнинг мустаҳкам қўрғони // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. — Т., 2017. — Б.229.



2. Ильин И.А. Будем сильнее всякого кризиса // Наука и религия. 2009. – С.2-4.
3. Кусмарцев М. Б., Машенцева Н. В. Патриотическое воспитание учащейся молодежи: теория и практика. Волгоград. 2007. – С.212.
4. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. М., 2008. – С. 269.
5. Бердяев Н.А. Царство духа и царство кесаря //Дух и реальность. – М., 2003. – С.585.
6. Берг Л.С. Борьба за существование и взаимная помощь. – [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/borba-za-suschestvovanie-i-vzaimnaya-pomosch>.
7. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – М. 1989. – С.210-211.
8. Семенов Ю.И. Возникновение человеческого общества. Красноярск, 1962.– С.376,478-479.
9. Толстов С.П. Пережитки тотемизма и дуальной организации у туркмен // Проблемы истории докапиталистических обществ. № 9-10. 1935.– С. 26.
10. Wikipedia: The Free Encyclopedia. Wikimedia Foundation, 2014. URL: <http://en.wikipedia.org/wiki/Animism>.
11. Введение в культурологию: Учеб.пособие для вузов / Руководитель автор. колл.иотв.ред.Е.В. Попов – М., 1996. – С.108-110.
12. Введение в культурологию: Учеб.пособие для вузов / Руководитель автор. колл.иотв.ред.Е.В. Попов – М., 1996. – С.108-110.
13. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Ватанни свмоқ иймондандир ҳадисининг ривойиси ким? Savollar.islom.uz.
14. Поляков Л. Логика русской идеи // Общественные науки и современность. 1992. №3.
15. Абдурахманова М. Ёшлар кейинги беш йилда мамлакатимиз ривожининг драйвери бўлади. – [Электрон ресурс]. – Кириш тартиби: <https://yuz.uz/news/yoshlar>.

16. Сысоева А.Г., Филина Н.В. Влияние религии на мировоззрение современной молодёжи // Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. - 2019. – Спецвыпуск № 6. - URL <http://ejournal.omgau.ru/images/issues/2019/S06/00676.pdf>. - ISSN 2413-4066/

17. Нурмеев Ю.Р. Идейные основы и базовые принципы либерализма. – [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <https://www.google.com/search?>